

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2025-yil “ 4 ” sentabr da
163 - son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining

2025-yil “ 4 ” sentabr dagi

163 - sonli qaroriga

ILOVA



**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash Tartibi**

(Yangi tahrirda)

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash

Tartibi *(Yangi tahrirda)*

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash tartibi” (keyingi o‘rinlarda – tartib) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Garov to‘g‘risida”gi, “Ipoteka to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4071-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 28-aprelda 16/18-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 3030, 02.07.2018-y.), “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Kredit siyosati va Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 916, 05.2000-y.) Nizom hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – bank) tomonidan ajratilayotgan kredit, ko‘rsatilayotgan lizing xizmati, faktoring hamda bank kafolati uchun taqdim qilinadigan ta’minotga qo‘yiladigan talablar, garov mulkiga nisbatan garov shartnomalarini rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish, ularni baholatish, garov mulkining qiymatini aniqlash hamda ta’minot sifatida taqdim qilingan mol-mulkni boshqa mol-mulkka to‘liq yoki qisman almashtirish va majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda garovdan chiqarish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Tartib bankning ichki me’yoriy hujjati hisoblanib, uning talablariga kreditlash amaliyotlari bilan bog‘liq bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari, bank Kredit qo‘mitasi, Kredit komissiyalari a‘zolari va anderrayterlar, monitoring jarayonini amalga oshiruvchi mutaxassislar qat’iy ravishda amal qilishlari shart.

4. Ushbu Tartib va boshqa qonunchilik hujjatlarida nomuvofiqlik kuzatilgan taqdirda yuridik jihatdan yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjatlar qoidalariga amal qilinadi.

5. Tartib talablariga rioya qilinmagan holda kredit ta’minoti sifatida taqdim qilingan mol-mulk garovdan chiqarilgan taqdirda mas’ul shaxslar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

6. Tartibda quyidagi atamalardan foydalaniladi:

avtotransport vositasi - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyulda “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida”gi 191-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan tasnifga muvofiq bo‘lgan avtotransport vositalari;

bank - “Biznes rivojlantirish banki” ATB;

hududiy boshqarma – bankning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat boshqarmalari;

hududiy bo‘linma - bankning hududlardagi Bosh amaliyotlar boshqarmasi, BXO, BXM va 2-toifali BXMlar;

kredit xizmatlari - kredit, lizing, kafolat, faktoring, akkreditiv, mol-mulkni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotish bitimlari va mijoz o‘z majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlaydigan kreditga tenglashtirilgan bank operatsiyalari;

garovga qo‘yilayotgan mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasi - garovga qo‘yuvchi, mijoz va bank o‘rtasida mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq shaklda garovga olinayotgan ko‘char/ko‘chmas mulkni o‘rganish natijalari bo‘yicha Tartibning 3-ilovasida belgilangan diskontlar doirasida garov qiymatini o‘zaro kelishgan holda tuziladigan hujjat;

davlat organi - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ko‘char va/yoki ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi;

BYUD - tovarning IM-40 (erkin muomala) bojxona rejimiga o‘tganligi to‘g‘risidagi bojxona yuk deklaratsiyasi;

asosiy ta‘minot - mijozning kredit xizmati bo‘yicha majburiyatini ta‘minlash uchun bank tomonidan qabul qilinadigan, kredit xizmati bo‘yicha ta‘minotning yetarliligini hisoblashda kredit xizmati bo‘yicha majburiyatning (kredit qoldig‘ining) kamida 125 foiz (bankka aloqador shaxslarning kreditlari bo‘yicha 130 foiz)ini qoplaydigan va bankning ichki qoidalariga mos keladigan ta‘minot (kredit mahsuloti pasportida belgilangan holatlar bundan mustasno);

qo‘shimcha ta‘minot - bank tomonidan asosiy ta‘minotga qo‘shimcha ravishda qabul qilinadigan va kredit xizmati bo‘yicha ta‘minotning yetarliligini hisoblashda kredit xizmati bo‘yicha majburiyatning (kredit qoldig‘ining) 125 foiz (bankka aloqador shaxslarning kreditlari bo‘yicha 130 foiz)ini tashkil etadigan asosiy ta‘minot doirasida hisobga olinmaydigan ta‘minot;

turar joy - uylar, ko‘p qavatli uylardagi xonadonlar, ya‘ni kadastr hujjatlari asosida yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk;

garov reyestri - qarzdorlar tomonidan majburiyatlar bajarilishining ta‘minoti sifatida berilgan mol-mulkka nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga bo‘lgan huquqlarining qonunga muvofiq belgilangan cheklovlari hamda qarzdorning o‘z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq boshqa talablari haqidagi yozuvlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarning yagona axborot bazasi;

garovga qo‘yuvchi - mijozning bank oldidagi majburiyatlarini ta‘minlash uchun bankka ko‘char/ko‘chmas mulkni va/yoki mulkiy huquqlarni garovga qo‘yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkor;

mijoz - bank bilan kredit xizmatini olish to'g'risida tegishli shartnoma tuzgan, shuningdek ta'minot taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkor;

konsalting kompaniyasi - mijoz tomonidan jalb qilingan baholovchi tashkilot tomonidan aniqlangan ta'minotning bozor qiymatining adolatli ekanligini tekshirish, ta'minotning bozor qiymatini aniqlash uchun bank tomonidan jalb qilinadigan, tegishli litsenziyaga ega bo'lgan, baholash faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyasi;

ko'p qavatli uy - ko'p qavatli uyga tutash yer uchastkasiga yoki bunday uydagi umumiy foydalanish joylariga mustaqil kirish yo'llariga ega bo'lgan ikki va undan ortiq qavatli uy-joy. Ko'p kvartirali uyda joylarning mulkdorlariga ulushli mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mulk (umumiy mol-mulk) elementlari mavjud bo'ladi;

ta'minot - mijozning bank oldidagi majburiyatlari bajarilishini kafolatlash bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ular bilan cheklanmaydi. Mijozning va/yoki uchinchi shaxslarning mol-mulki va/yoki mulkiy huquqlari garovi, uchinchi shaxslarning kafolati va/yoki kafilligi, shuningdek pul va/yoki boshqa talab qilish huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish;

ko'chmas mulk obyekti - yuridik va jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) mulki bo'lgan binolar, inshootlar, ko'p qavatli uylardagi xonadonlar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari;

qurilishi tugallanmagan ko'chmas mulk obyekti - belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq qurilishi boshlangan, biroq ko'rsatilgan muddatda tugallanmagan yoki qurilishni (rekonstruksiyani) qabul qilish dalolatnomasi (foydalanishga ruxsatnoma) asosida tugallangan, biroq foydalanishga qabul qilinmagan bino va inshootlar;

maxsus texnika - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi "Avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularga ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 683-sonli qaroriga muvofiq YHXX organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan transport vositalari;

savdo majmuasi - chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasining turg'un obyektlari joylashgan yagona yer uchastkasida qurilgan bino va/yoki inshoot;

garov qiymatini kelishish guruhi - ushbu Tartibga 1-ilovada ko'rsatilgan, Tartibda nazarda tutilgan tartib-taomillarni o'tkazish va kredit xizmati bo'yicha mijoz majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida qabul qilinadigan mol-mulkning garov qiymatini aniqlash uchun mas'ul bo'lgan bankning hududiy bo'linmalari xodimlari.

2-bob. Ta'minot turlari va ularga qo'yiladigan talablar

7. Bank tomonidan ta'minot sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin:

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB hududiy bo‘linmalarida depozit/omonatlarda turgan erkin almashiniladigan xorijiy valyuta yoki milliy valyutadagi pul mablag‘lari garovi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari garovi;

avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalari, qishloq xo‘jaligi texnikalari garovi;

ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar garovi;

banklar va sug‘urta tashkilotlarining kafolati;

sug‘urta tashkilotlari polislari;

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning kafilligi;

uchinchi shaxs kafilligi;

mahsulotlar sotishdan (eksportidan) kelajakda tushadigan tushumlar;

mikromoliya tashkilotlarining kredit portfeli (standart aktiv sifatida tasniflangan va boshqa bankda garovda bo‘lmagan qismi);

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa ta‘minotlar va mulkiy huquqlar.

8. Ta‘minot kreditni qaytarishning ikkilamchi manbai hisoblanadi va ta‘minotga kredit qoplanishining asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim. Kreditni qaytarishning asosiy manbai xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun ularning faoliyati davomida olgan moliyaviy daromadlari, jismoniy shaxslar uchun esa ularning mehnat faoliyati davomida olgan va boshqa daromadlari hisoblanadi.

9. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklar quyidagi talablarga javob berishi shart:

boshqa garovdan va majburiyatdan holi bo‘lishi (Kredit siyosati talabi doirasida navbatdagi garovda bo‘lgan holatlar bundan mustasno);

likvidli bo‘lishi ya‘ni tez sotish orqali pul mablag‘iga aylantirish imkoniyati mavjudligi;

uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo‘lmasligi);

nazorat qilib turish imkoniyati mavjud bo‘lishi;

garovga qo‘yuvchida garov obyektiga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish uni tasarruf etish va garovga qo‘yish huquqi mavjud bo‘lishi;

egalik huquqi umumiy bo‘lgan mol-mulkni garovga olish rejalashtirilgan hollarda barcha mulkdorlarning yozma roziligi mavjud bo‘lishi;

kredit ta‘minoti sifatida ko‘chmas mulk garovi taqdim etilsa, bino va inshootlar ipotekasi bilan bir vaqtda, ular joylashgan yer uchastkasi va/yoki undan foydalanish huquqi bilan ipotekaga berilishi (ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlar yoki ko‘p qavatli

noturar bino-inshootlarda joylashgan ko'chmas mulklar bundan mustasno);

garov obyekti "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq baholangan bo'lishi;

kredit ta'minotiga turar joy garovga qo'yilayotgan bo'lsa, u holda bank mutaxassislari tomonidan ushbu garovga qo'yilayotgan turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligi o'rganilishi lozim (ipoteka kreditlari bundan mustasno);

garovga qo'yilgan mol-mulk kredit muddatidan kam bo'lmagan muddatga sug'urtalangan bo'lishi va Bank sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta to'voni summasidan o'z talablarini imtiyozli qanoatlantirish huquqiga ega bo'lishi kerak.

10. Quyidagilar ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas:

tarixiy, madaniy yoki boshqa qadriyatlarga mansubligi sababli davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirilishi hamda sotib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulklar;

doimiy ro'yxatda fuqarolar mavjud bo'lgan uy-joylar (bank tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlari uchun ta'minot sifatida taqdim etiladigan uy-joylar bundan mustasno);

uy jihozlari va idishlar, kiyim-kechak hamda qarzdorning oilasi normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan boshqa buyumlar;

muomaladan chiqarilgan mol-mulklar;

boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan mol-mulklar/talablar garovi;

tegishli kadastr hujjatlari (tasarruf etish huquqi) mavjud bo'lmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan bino va inshootlar;

qimmatbaho toshlar va zargarlik buyumlari;

masjid, cherkov va shunga o'xshash diniy obyektlar;

bahsli (nizoli) holatda bo'lgan (sud jarayoni davom etayotgan) mulklar (ushbu holat myorg.uz sayti va boshqa tashqi manbalar orqali olingan ma'lumotlar asosida);

egasi bankrot holatida bo'lgan mol-mulk (bunda bankrotlik holati mavjud tashqi manbalar orqali o'rganiladi);

qisman yoki to'liq davlat tasarrufida bo'lgan dehqon va buyum bozorlari;

kadastr hujjatlariga asosan yerga bo'lgan huquq turi aniqlanmagan ko'chmas mulklar;

qurilishi tugallanmagan/tugallangan ko'p-qavatli uylar (ushbu ko'p-qavatli uy-joylarni qurilishi uchun kredit berilayotgan hollar bundan mustasno).

11. Quyidagilar asosiy ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas:

Bank tomonidan chiqarilgan aksiyalar;

yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalari hamda ulushlari garovi;

binoda joylashgan va demontaj qilinishi natijasida narxi sezilarli darajada pasayib ketishi mumkin bo'lgan uskuna va texnologik uskunarlar (bunday uskuna o'rnatilgan ko'chmas mulk bilan birga garov sifatida olinishi yoki bank balansiga qabul qilingan mol-mulklar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 2 kalendar yildan oshgan alohida turgan asbob-uskunalar. (bank balansiga olingan mulklar, shuningdek, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan uskunalar ular joylashgan/o'rnatilgan bino/yer bilan birgalikda (bunda uskunalar garov narxi jami kompleks narxining 40 foizidan oshib ketmasligi kerak) ta'minotga taqdim etilgan holatlar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 5 kalendar yildan oshgan yengil avtotransport vositalari M1 kategoriya va mikroavtobuslar), garovga olish (bank balansiga olingan mulklar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 3 kalendar yildan oshgan odam tashuvchi avtotransport vositalari (M2, M3), garovga olish (bank balansiga olingan mulklar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 2 kalendar yildan oshgan qishloq xo'jaligi va maxsus texnikalarni garovga olish (bank balansiga olingan mulklar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 3 kalendar yildan oshgan yuk tashuvchi avtotransport vositalari va tirkamalar (N1, N2, N3, O)ni garovga olish (bank balansiga olingan mulklar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 7 kalendar yildan oshgan yuk tashuvchi avtotransport vositalari, ya'ni sedelniy tyagachlarni garovga olish (bank balansiga olingan mulklar bundan mustasno);

yuridik shaxs kafilligi taqdim etilayotganda uning to'lov qobiliyatini tahlil qilish jarayonida korxona balansi nolikvidligi yoki zarar bilan ishlayotganligi aniqlansa, ushbu kafillik asosiy ta'minoti sifatida qabul qilinmaydi (Hukumat qarorlari asosida, shuningdek bankning strategik mijozlariga ajratiladigan kredit ta'minoti hamda qo'shimcha ta'minot sifatida olinadigan holatlar bundan mustasno);

budjet tashkilotlari kafilligi (XUJMSH va Boshqaruv kompaniyalarga ajratiladigan kreditlar uchun taqdim etilgan kafilliklar bundan mustasno);

to'lovga qobiliyatsiz, moliyaviy barqaror bo'lmagan, nosog'lom hamda doimiy pul oqimiga ega bo'lmagan yuridik shaxslarning, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlarining kafilliklari;

nolikvid, kelgusida sotilishi qiyin bo'lgan mulklar, oson buzilishi, tez qadrsizlanishi yoki boshqa salbiy omillar ta'sirida qiymatini yo'qotishi mumkin bo'lgan mol-mulklar garovi;

notijorat tashkilotlarining kafilligi;

obyektga erkin kirish imkoniyati mavjud bo'lmaganda servitut huquqiga ega bo'lmagan yoki alohida tashqi kirish imkoniyatiga ega bo'lmagan obyektlar yoki obyekt ichidagi xonalar (literlar);

chet elda joylashgan mol-mulklar;

buzilish hududiga tushgan ko'chmas mulklar;

suv, havo va temir yo'l transporti vositalari garovi;

mototransport vositalari;

chet el rezidenti bo'lgan jismoniy va yuridik shaxs kafilliklari.

12. Ushbu Tartibning 11-bandida ko'rsatilgan talablar qo'shimcha ta'minot garovini qabul qilishda qo'llanilmaydi.

13. Ko'char mol-mulk bo'yicha ishlab chiqarilgan vaqtdan boshlab o'tgan muddatni hisoblashda mol-mulk ishlab chiqarilgan yil birinchi yil deb hisoblanadi, bunda ishlab chiqarilgan oy hisobga olinmaydi. (Misol: 2025-yilda ishlab chiqarilgan uskuna, 2026-yil yanvar oyidan boshlab 2 kalendar yillik uskuna hisoblanadi).

14. Garovga qo'yuvchining garov narsasi bo'lgan ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi renovatsiya dasturi doirasida bekor bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 285-moddasi, "Ipoteka to'g'risida"gi qonunining 28-moddalariga muvofiq garovga qo'yuvchiga o'rniga-o'rin berilgan mol-mulkka nisbatan garov huquqi tadbiriq etiladi yoki bank garovga qo'yuvchiga tegishi kerak bo'lgan haq summasidan (kompensatsiyadan) o'z talabini imtiyozli qanoatlantiradi. Ushbu qoida kredit shartnomasi va garov (ipoteka) shartnomalarida nazarda tutilishi lozim.

15. Yuridik shaxslarga ajratiladigan kreditlar uchun jismoniy shaxslar kafilligi bank tomonidan faqat qo'shimcha ta'minot sifatida qabul qilinadi va ushbu holatda kafilning daromadlari tahlili amalga oshirilmaydi.

16. Kredit xizmatining amal qilish muddati davomida, shu jumladan kredit xizmati bo'yicha majburiyatlarni qisman so'ndirishda mijozning arizasiga ko'ra ta'minot bo'shatilgandan keyin mijozning kredit xizmati bo'yicha amaldagi majburiyatining

125 foiz (bankka aloqador shaxslarning kreditlari bo'yicha 130 foiz)ini asosiy ta'minot tashkil etishi kerak (kredit mahsuloti pasportida belgilangan holatlar bundan mustasno).

17. Kredit ajratilgandan so'ng, kreditning valyuta turidan qat'iy nazar kreditning ta'minlanganlik darajasi 125 foiz (bankka aloqador shaxslarning kreditlari bo'yicha 130 foiz)dan kamayib ketgan taqdirda, bankning mijozlar bilan ishlovchi menejeri hamda monitoring xodimi tomonidan kredit ta'minotiga qo'shimcha ta'minot olish tadbirlari amalga oshirilishi hamda ushbu shart kredit shartnomasida ko'rsatilishi kerak.

18. Mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olingan asbob-uskunalarni yoki mahalliy dilerlar orqali sotib olingan import asbob-uskunalarni garov sifatida rasmiylashtirishda ushbu asbob-uskunalarining oldi-sotdi shartnomalari talab qilib olinishiga va ularda asbob-uskunalarining spesifikasiyasi va texnik tavsiflari, ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarilgan yili, qarz oluvchi korxonaning hisob registrlariga kiritilganligi, boshlang'ich va joriy qiymati, jamlangan eskirish summasi bo'yicha birlamchi hujjatlar va ma'lumotlar mavjudligiga alohida e'tibor qaratiladi.

19. O'zbekiston Respublikasi hududida ikkilamchi bozordan ko'chmas mulk va/yoki avtotransport vositalari xaridi uchun ajratiladigan kreditlarda sotib olinayotgan

mol-mulk mustaqil baholovchi tomonidan baholanishi shart. Bunda mol-mulk mijoz tomonidan mutaqil baholatilganda baholash hisobotiga qo'shimcha ravishda konsalting xulosasi olinishi shart. Mol-mulk bank tomonidan baholatilgan hollarda konsalting xulosasi talab qilinmaydi.

20. Ta'minot sifatida taqdim etilayotgan mol-mulklar bo'yicha taqiq mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha tashqi manbalar orqali tekshiriladi.

Mol-mulk ushbu Tartibda ko'rsatilgan talablarga javob berganda va taqiq mavjud bo'lmagan taqdirda (bank tizimida navbatdagi garov sifatida olingan holatlar bundan mustasno) garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan Tartibning 3-ilovasiga muvofiq shaklda garovga qo'yilayotgan mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

21. Kadastr hujjatlari asosida garovga qo'yuvchi/mulk egasida ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi, shuningdek tegishli yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar mavjud bo'lgandagina, ushbu mulk kredit xizmati uchun ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin. Agar kadastr hujjati asosida yerga bo'lgan huquq ijaraga asoslangan bo'lsa, ijara shartnomasining nusxasi talab qilinadi va uning amal qilish muddati mijoz tomonidan olinadigan kredit xizmatining muddatiga mutanosibli tekshiriladi. Agar ijara muddati kredit xizmatining muddatidan kam bo'lsa, keyinchalik bu muddat kredit xizmatining muddatiga mos ravishda uzaytirilishi kerak. Ushbu talab tomonlar o'rtasida tuziladigan tegishli kredit xizmati shartnomasi shartlarida ko'rsatilishi shart.

22. Agar kredit ta'minoti uchun ko'chmas mulkning bir qismi taklif qilinayotgan bo'lsa, ushbu bino va inshootdan kelgusida alohida foydalanish imkoniyati mavjudligiga e'tibor qaratish kerak.

23. Qo'p qavatli bino-inshootlarning muayyan qavatli yoki bir necha qavatlari kredit ta'minotiga qabul qilinayotgan hollarda quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

bino ichidagi alohida qavatlar bir shaxsga tegishli bo'lganda ta'minotga qabul qilish nazarda tutilayotgan qavat (qavatlar) uchun alohida tuzilgan kadastr hujjati talab etiladi;

bino ichidagi qavatlar bir necha shaxsga tegishli bo'lsa, har bir qavat yoki qavatlar uchun alohida kadastr hujjati talab etiladi.

Bunda qavatlar mulkdorlari o'rtasida umumiy maydondan (zinapoya, lift) birgalikda foydalanish to'g'risida shartnoma imzolanishi va ushbu shartnoma tegishli davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

24. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning kafilligi bilan ta'minlangan kreditlar so'ndirilganda, birinchi navbatda kompaniyaning majburiyatlari kredit ta'minotidan ozod qilinadi. Bunday kreditlar bo'yicha boshqa ta'minot turini bo'shatish faqat "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning majburiyati ta'minotlar tarkibidan to'liq bo'shatilgandan so'ng amalga oshiriladi.

25. Kredit ta'minotiga ko'chmas mulklar, transport vositalari, qishloq xo'jalik texnikasi va tovar-moddiy boyliklar garovi rasmiylashtirilayotganda mulk egasidan

ushbu mulklarning haqiqatda mavjudligi, hisobining o'rnatilgan tartibda yuritilishi, ularga nisbatan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, texnik shartlari ko'rsatilgan pasportlari va ushbu mol-mulklar belgilangan tartibda vakolatli organlar ro'yxatida turganligi haqida tegishli ma'lumotlar talab qilib olinishi shart.

26. Kredit ta'minotiga depozitlar, sug'urta polisi, uchinchi shaxs kafilligi va boshqa nomulkiy ta'minot turi rasmiylashtirilayotganda, ajratilayotgan kredit va ta'minot muddatlarining o'zaro mutanosibligi ta'minlanishi hamda kredit majburiyatlari to'liq so'ndirilmagunga kadar amalda bo'lishi shart.

27. Kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi ostida kredit xizmatlarini ko'rsatishda ichki reyting va limit natijalaridan kelib chiqib, kredit ta'minotlari bo'yicha tasdiqlangan namunaviy shartnomalarga amal qilgan holda tuzilishi shart (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, hukumat qarorlari, topshiriqlari va bayonlari ijrosini ta'minlash maqsadida kredit ajratish holatlari bundan mustasno).

28. Garov mulki kadastr hujjatlarida (kadastr pasporti ko'chirmasi va kadastr pasporti) nomutanosibliklar (yer maydoni, qurilish osti maydoni, litrlar soni va h.k.) mavjud bo'lgan mulklarni garovga olish taqiqlanadi.

29. Ko'chmas mulklar alohida bloklar (literlar) bo'yicha qisman garovga qabul qilinganda, yer uchastkasining garovi quyidagicha qabul qilinadi:

kompleksning barcha bino-inshootlari joylashgan butun yer uchastkasi bilan garovga olinishi lozim (mijoz bunday garovni rasmiylashtirishga tayyor bo'lgan taqdirda);

ushbu bino va inshootlar joylashgan yer uchastkasining bir qismi garov sifatida rasmiylashtiriladi. Bunda buning uchun yer uchastkasining chegarasi (konturi) va maydoni ko'rsatilgan holda kadastr xizmatining chegaralarni ajratish dalolatnomasi rasmiylashtirish talab etiladi. Bunday hollarda mulk va yer uchastkasini baholashda aynan garovga qo'yilayotgan yer uchastkasini to'g'ri baholanishiga e'tibor qaratish zarur.

30. Ko'chmas mulk kompleks tarzda garovga olinganda obyektida to'laqonli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan barcha infratuzilmalar, ya'ni temir yo'l tarmog'i, transformator podstantsiyalari, gaz taqsimlash podstantsiyalari, quvurlar va boshqalar mavjudligiga alohida e'tibor qaratish va ularning to'liq ro'yxatini shakllantirish zarur.

31. Garov obyekti qurilishi loyihasiga o'zgartirishlar kiritish (qo'shimcha qurish, ta'mirlash va buzish) vakolat va limitdan kelib chiqib kredit ajratishdagi tegishli kollegial organi/anderrayter qarori/ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Mazkur holatda garov obyektining bozor qiymati qayta baholanishi va garovga qo'yuvchi bilan garovga oluvchi o'rtasida tuzilgan garov qiymatini qayta kelishuv dalolatnomasiga muvofiq sug'urta va kredit shartnomasiga o'zgartirishlar kiritilishi hamda ushbu o'zgartirishlar garov shartnomasida notarial tartibda qayd qilinishi lozim.

32. Qimmatli qog'ozlarni garovga olishda ularning asosiy rekvizitlari

shartnomada ko'rsatib o'tilishi lozim (emitent, nominal qiymati va bozor qiymati, chiqarish shartlari va boshqalar). Agar garovga qo'yiladigan qimmatli qog'ozlar "hujjatli shaklda" bo'lsa, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar saqlash uchun bankka topshiriladi, "hujjatsiz shaklda" bo'lgan qimmatli qog'ozlar bankning depozitariyadagi "Depo" hisobvarag'iga o'tkaziladi. Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog'ozlar kredit bo'yicha foizlari va kreditning asosiy summasi to'liq so'ndirilgandan so'ng qaytariladi.

33. Garovga qo'yiladigan mulkning garovga qo'yish huquqlari unga doir hujjatlarni o'rganish, shartnoma imzolovchi tarafning vakolatli ekanligini tekshirish orqali aniqlanadi. Qonunga ko'ra, ulushli mulk garovga olinganda ulushga ega bo'lgan barcha mulkdorlarning roziligi talab qilinadi.

34. Garovga qo'yuvchi yuridik shaxs davlat ulushiga ega bo'lsa, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki vakolatli organ yohud shaxs rozilgisiz bu mulkni garovga olish taqiqlanadi. Ulushli jamiyatlar mulkdorlarining shunday bitimni tuzishga vakolatli bo'lgan boshqaruv organi qarori mavjud bo'lganda mulk garovga olinishi mumkin.

Quyidagi hollarda:

aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs tomonidan mulklar garovga qo'yilganda mulkni garovga qo'yishga rozilik O'zbekiston Respublikasining "Aksiyaorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni talablariga muvofiq uning vakolatli boshqaruv organining qarori asli yoki notarial tasdiqlangan nusxasini bankka taqdim qilinishi;

mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi yuridik shaxs tomonidan mulklar garovga qo'yilganda rozilik O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq uning vakolatli boshqaruv organining qarori asli yoki notarial tasdiqlangan nusxasi bankka taqdim qilinishi;

xususiy korxona mulklari garovga olinganda mulkdorlar roziligi O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida olinishi lozim. Shu kabi, boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarning mulkdorlari roziligi amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda olinishi lozim.

35. Eksport kontrakti kelgusi tushumlari ta'minoti ostida kredit xizmatlari moliyalashtirilishidan avval quyidagi talablar majburiy hisoblanadi:

eksport qiluvchi foydasiga ochilgan tasdiqlangan/qoplangan akkreditivning mavjudligi yoki eksport qiluvchi foydasiga to'lovchining banki tomonidan kontrakt majburiyatlarini bajarish bo'yicha olingan bank kafolatining mavjudligi;

eksport kontraktini tashqi savdo shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish bazasida ro'yxatdan o'tkazilganligi;

eksportyor tomonidan eksport kontrakti bo'yicha kreditni moliyalashtirish summasidan kam bo'lmagan summadagi tovarni yuklab jo'natilganligi;

mijoz hisobvarag'ida 2-kartoteka majburiyatlarining yo'qligi;

bank tizimida ushbu moliyalashtiriladigan eksportyor va xaridor (importyor) o'rtasida muddati o'tgan debitorlik va/yoki kreditorlik qarzlarning mavjud bo'lmashligi.

Bunday turdagi ta'minot uchun berilgan kreditning tugash sanasi ochiq akkreditiv/kafolat amal qiladigan sanadan oshmasligi kerak.

Bankning kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan eksport kontraktidan kelib tushgan mablag'lar birinchi navbatda kreditni to'lashga yo'naltirilishi va ushbu shart kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

36. Bank tomonidan qarzdorlar bilan tuzilgan garov shartnomalari bo'yicha garov reyestriga garov turlarini o'z vaqtida to'g'ri va sifatli kiritib borilishi, o'zgartirishlar amalga oshirilishi hamda majburiyatlar bajarilganda belgilangan muddatlarda yozuvlar garov reyestridan chiqarib borilishi ta'minlanishi lozim.

3-bob. Garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan garov obyektini joyiga chiqqan holda o'rganish tartibi

37. Bankda garov obyektini ko'zdan kechirish, mulkka bo'lgan huquqlarni belgilovchi hujjatlarni tekshirish va garovga qo'yilayotgan mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasini imzolash "Garov qiymatini kelishish guruhi" tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur guruh tarkibi Tartibning 1-ilovasiga muvofiq belgilanadi. Ipoteka kreditlarida uy-joy qiymatini kelishish dalolatnomasi dastlabki monitoring davrida ham rasmiylashtirilishi mumkin.

38. Kredit ta'minoti uchun taqdim etilayotgan mol-mulklar kunduz kuni joyiga chiqqan holda Garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan vizual ko'rikdan o'tkaziladi. Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan mol-mulklar bevosita guruh a'zolari yoki ulardan biri tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganilishi shart.

39. Guruh tomonidan kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etiladigan har qanday mulkning vizual ko'rigi garov objekti joylashgan joyda amalga oshirilishi, uning haqiqatda mavjudligi, identifikatsion belgilari, saqlash va foydalanish shartlari, ishchi holati hamda foydalanishga yaroqliligi tekshirilishi shart.

4-bob. Garov obyektlarini suratga olish tartibi

a) Avtotransport vositalarini suratga olish tartibi.

40. Garov sifatida avtotransport (yengil avtomobillar, avtobuslar, maxsus texnikalar va boshqa turdagi) vositalari taqdim etilganda, ular quyidagicha suratga olinishi shart:

umumiy ko'rinishi;

oldi tarafdin ko'rinishi;

orqa tarafdin ko'rinishi;

o'ng yon va chap yon tarafdin ko'rinishi;

avtotransportning bosib o'tgan masofasini ko'rsatuvchi o'lchagichi (spidometr yoki maxsus texnikalarda motosoat);

identifikatsiyalovchi shassi (rama), kuzov va dvigatellar (tirkama va yarim tirkamalar bo'lganda) raqami tushirilgan fotosurati.

Avtotransport vositasini ko'zdan kechirish jarayonida uning texnik pasporti asli ko'rib, fotosuratga olinishi lozim.

Yukorida keltirilgan talablar kredit mahsuloti pasporti doirasida birlamchi bozordan avtotransport vositalarini sotib olish uchun ajratiladigan kreditlarda kredit berilishidan avval garov shartnomasi rasmiylashtirilgan holatlar uchun tadbiq etilmaydi.

b) Bino va inshootlarni suratga olish tartibi.

41. Garov sifatida bino-inshootlar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

birinchi navbatda binoning tashqi ko'rinishi – bunda bino qaerda joylashgani haqida tasavvur paydo bo'lishi uchun, binoning umumiy ko'rinishidagi fotosuratda uning atrofidagi boshqa, quyi binolar va yo'llar aks ettirilishi;

binoning tashqi ko'rinishi suratga olinganda – binoning oldi tomoni, yon tomonlari va imkoni bo'lsa orqa tomonlarining fotosuratlari bo'lishi;

bino-inshootlar bir nechta literlardan iborat bo'lsa, xar bir literlarni aks ettiruvchi alohida fotosuratlar bo'lishi;

binoning ichki hovli hamda xonalarini rasmga olishda fotosuratlar ketma - ketlik tartibiga amal qilinishi;

bino-inshootning xonalari suratga olinganda har bir xonaga kirishni va kamida ikkita burchakdan xonalarning ichki ko'rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar bo'lishi lozim.

42. Ko'chmas mulk obyektlarining fotosuratlari Google Earth (Google Map va boshqalar) geolokatsion xizmatlar orqali nusxalash yo'li bilan fotosuratlar olish zarur. Bunday fotosuratlar obyektning aniq joylashuvini va barcha qismlari (bino-inshoot va boshqalar)ni tashqi tomondan ko'zdan kechirish hamda yaqin hududda joylashgan obyektlarni tahlil qilish, garov obyektidan alohida foydalanish imkoniyati mavjudligini, ko'chmas mulkning boshqa qismlaridan alohida bo'lgan kirish-chiqish mumkinligini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Geolokatsion xizmatlar orqali olingan lokatsiya fotosuratlari garov narxini kelishuv dalolatnomasiga ilova qilinishi lozim.

Bino-inshootlarning kamida 20 ta ko'rinishda suratga olinishi (10 tasi tashqi va 10 tasi ichki ko'rinish) lozim. Zaruriy hollarda garov obyektining holatidan kelib chiqib suratlar miqdori ko'proq bo'lishi mumkin.

43. Agar garov obyekti bir necha liter (blok)lardan iborat bo'lib, kredit ta'minoti sifatida faqat bittasi yoki bir nechta taqdim etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, garov

qiymatini kelishish guruhi tomonidan garovga berilayotgan obyektning qismlariga alohida kirish yo'laklari yoki servitut (servitut huquqi – bu yer egasining muayyan hollarda qo'shni yer egasiga tegishli yerdan foydalanishni talab qilish huquqidir) mavjudligi tekshirilishi lozim. Garov obyektiga nisbatan servitut mavjud bo'lmagan yoki alohida tashqi tomondan kirish imkoni bo'lmagan obyektlar yoki obyekt ichidagi binolar (literlar) garovga olinishi mumkin emas. Kredit ajratish jarayonida bunday huquq mavjud bo'lmagan hollarda, qarz oluvchi/garovga beruvchi tomonidan garov (ipoteka) shartnomasi rasmiylashtirilguniga qadar olinishi mumkin.

44. Garov obyektini rasmga olish jarayonida obyektning tashqi ko'rinishi har tomonlama olinishi, agar ko'zdan kechirilayotgan obyekt ko'chmas mulk bo'lsa, unda albatta ichki ko'rinishi ham suratga olinishi zarur, xususan binoning ichki pardozi va nuqsonli joylari (darz ketgan, shikastlangan joylar va boshqalar) ham o'z aksini topishi lozim.

c) Uskunalarini suratga olish tartibi

45. Har bir garov obyektini alohida suratga olinishi, xususan uning individual xususiyatlari, joylashuvi va obyektning yon atrofi aks ettirilishi lozim (asbob-uskunalarining identifikatsion xususiyatlari – ishlab chiqaruvchi zavod nomi, seriya raqami, ishlab chiqarilgan sana, ishlab chiqarilgan mamlakat va egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozim).

46. Garov sifatida uskunalar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

uskunalarining yaxlit holda umumiy ko'rinishdagi fotosurati (to'rt tomonidan);

uskunalarining yakka holda umumiy ko'rinishdagi fotosurati (to'rt tomonidan);

har bir uskunaning texnik parametrlari ko'rsatilgan yorlig'i (birka);

uskunalar ishchi holatda bo'lsa ularning ishlab turgan paytdagi videosi olinishi ham mumkin.

d) Tovar moddiy zaxiralari (TMZ)ni suratga olish tartibi

47. Garov sifatida tovar moddiy zaxiralari taqdim etilganda tovar moddiy zaxiralari qayerda joylashgan bo'lsa o'sha yerda suratga olinadi.

48. Guruh a'zolari garov obyektini ko'zdan kechirish va uning garov qiymatini kelishish qoidalariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi. Bunda garovga qo'yilayotgan mol-mulkning hujjatli tahlili quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

noturar ko'chmas mulk va yakka tartibdagi uy-joylar bo'yicha - Davlat kadastr reyestridan ko'chmas mulk bo'yicha ko'chirma va kadastr pasporti asosida;

ko'p qavatli uy-joylar bo'yicha – Davlat kadastr reyestridan ko'chmas mulk bo'yicha ko'chirma va kadastr pasporti asosida;

transport vositalari - transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida;

uskunalar - bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) nusxasi, uskunaning texnik pasporti, oldi-sotdi shartnomasi/import shartnomasi va/yoki hisobvaraqa-faktura yoki balans ma'lumotnomasi nusxasi;

tovar-moddiy boyliklar - TMBning dastlabki hisob-kitob hujjatlari, saqlash, tashish (transport ekspeditsiyasi), oldi-sotdi, yetkazib berish shartnomalari, tovar-transport yukxatlari nusxalari, garovga qo'yuvchida mavjud bo'lgan, garovga qo'yish uchun mo'ljallangan tovarlarni inventarizatsiya qilish dalolatnomasi nusxalari hamda korxona rahbari va bosh buxgalterining imzolari va korxona muhri bilan tasdiqlangan, omborda tovar-moddiy boyliklar qoldig'i mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar;

qimmatli qog'ozlar va depozitlar - garovga qo'yuvchida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar, depozit shartnomalari, depozit shartnomalari nusxalari va mulk huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

49. Garovga qo'yuvchining garov obyektiga nisbatan mulkiy huquqi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlardan nusxalar olingandan so'ng, mazkur garov obyektiga nisbatan taqiq yoki cheklovlar mavjudligi mijoz bilan ishlovchi menejer tomonidan garov obyektining parametrlariga qarab garov reyestri (www.garov.uz)ga so'rovnomaga jo'natish orqali va boshqa tashqi manbalar orqali aniqlanadi.

5-bob. Ta'minotning bank tomonidan qabul qilinadigan qiymatini aniqlash

50. Mol-mulklarni garovga olish, garov shartnomasini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirishning dastlabki bosqichi - bu garov obyektini baholashdir. Garovga qo'yilayotgan mulklarni baholash quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi holatda garov obyektini mijoz tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Mijoz o'z hisobidan garov obyektini qiymatini aniqlash maqsadida baholash xizmatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi va baholash hisobotlarini bankka taqdim etadi. Mijoz tomonidan taqdim etilgan baholash hisobotining muddati hisobot tayyorlangan kundan boshlab kredit xizmatiga ariza topshirilgunga qadar 6 oydan oshmasligi kerak.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan mustaqil baholash hisoboti to'g'ri tuzilganligini va garov obyektini bahosi haqiqiy qiymatidan yuqori emasligini (adolatli ekanligini) tekshirish uchun Bank belgilangan tartibda konsalting kompaniyasi bilan shartnoma tuzadi. Mijozdan garovni baholash to'g'risidagi hisobotni olgandan so'ng, mijoz bilan ishlovchi menejer konsalting kompaniyasining xulosasini olishi kerak.

Bunday holda, konsalting xulosasini olish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

* ko'chmas mulk (kvartiralar, ko'p qavatli uylar), avtotransport vositalari shaklidagi mulklar real vaqt rejimida maxsus dasturiy ta'minot orqali (agar mavjud bo'lsa);

* mol-mulkning boshqa turlari bo'yicha (aylanmadagi tovarlardan tashqari)

garovni baholash hisoboti konsalting kompaniyasi tomonidan garovning bozor qiymati adolatli ekanligini tekshirish maqsadida obyekt joylashgan manzilga borgan holda uning mavjudligini vizual ko'rish orqali amalga oshiriladi.

Konsalting xulosasi natijalari olinganidan so'ng, mulkning garov qiymati garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan Tartibning 3-ilovasida keltirilgan chegirmalar orqali aniqlangan eng past natija qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

Ikkinchi holatda garov obyekti bank tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Bank kredit xizmatlari uchun garov obyektini baholash maqsadida mustaqil baholovchi kompaniya bilan shartnoma tuzadi.

Bunday hollarda, mustaqil baholashni o'tkazish uchun mijoz/garovga qo'yuvchi mijoz bilan ishlovchi menejerga garov obyektiga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Shundan so'ng, mijoz bilan ishlovchi menejer baholash bo'yicha bank tomonidan shartnoma tuzilgan baholovchi kompaniyaga mulkni baholash bo'yicha topshiriq/ariza yuboradi.

Bunday hollarda mulk ikki yo'l bilan baholanadi:

* ko'chmas mulk (kvartiralar, ko'p qavatli uylar), avtotransport vositalari shaklidagi mulklar real vaqt rejimida maxsus dasturiy ta'minot orqali (agar mavjud bo'lsa);

* mol-mulkning boshqa turlari bo'yicha (aylanmadagi tovarlardan tashqari) garovni baholash hisoboti baholovchi kompaniya tomonidan bozor mezonlariga muvofiq obyektning butun tarkibini o'rganish maqsadida obyekt joylashgan manzilga borgan holda amalga oshiriladi;

Baholash natijalari olinganidan so'ng, mulkning garov qiymati garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan Tartibning 3-ilovasida keltirilgan chegirmalar yordamida belgilanadi.

Baholovchi kompaniya tomonidan joyiga borgan holda tuzilgan baholash hisobotining amal qilish muddati 6 oydan oshmasligi kerak.

Maxsus dasturiy ta'minot orqali baholash hisobotining amal qilish muddati 1 oydan oshmasligi kerak.

51. Garov obyekti qiymatining yetarliligini aniqlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish mazkur Tartibning 3-ilovasida ko'rsatilgan diskont (chegirma)lar doirasida amalga oshirilishi talab etiladi.

52. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan hamda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilganiga 6 oydan oshmagan yuk mashinalari va avtotransport vositalari garovga taqdim etilganda, ularning bank tomonidan garovga qabul qilinadigan qiymati transport vositalari sotib olingan hisob-fakturada keltirilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi (bunday hollarda mulkni baholash bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmaydi).

Garovga qo'yuvchi avtotransport vositalari sotib olingan hisob-fakturani bankka taqdim etishi lozim. Bunda hisob-fakturada ko'rsatilgan sana hamda mijozning kredit ajratish bo'yicha murojaat qilgan ariza sanasigacha bo'lgan muddat 6 oydan oshmagan bo'lishi shart.

53. Kredit hisobiga sotib olinayotgan/qurilayotgan garov obyektlari kredit ta'minoti sifatida kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng qabul qilinishi mumkin. Bunda ushbu garov obyektlari kredit ta'minoti sifatida taqdim etilishi tomonlar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Kredit hisobiga sotib olinayotgan/qurilayotgan mol-mulklarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

kredit mablag'lari hisobidan birlamchi va/yoki ikkilamchi bozordan import shartnomasi bo'yicha sotib olingan mol-mulkni garovga qabul qilish import kontraktida ko'rsatilgan mulk bahosi va BYUD hujjatlari asosida amalga oshiriladi (IM-40 BYUD taqdim etilgan sanadagi xorijiy valyuta kursi bo'yicha). Sotib olingan mulkning garov qiymatini aniqlashda diskontlar Tartibning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi;

O'zbekiston Respublikasi ichida birlamchi bozordan kredit mablag'lari hisobidan sotib olingan mol-mulklarni garovga qabul qilishda mulkning bahosi oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan qiymatga asosan belgilanadi. Bank tomonidan garov obyekti narxiga shubha tug'ilganda, bank ushbu mulkni mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholash huquqiga ega. Sotib olingan garov mulkning qiymatini aniqlashda diskontlar Tartibning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, bank tomonidan mustaqil baholashda (verifikatsiya qilingan narxdan) ko'rsatilgan qiymatdan ko'p bo'lmagan summani moliyalashtiradi va diskontlar ushbu baholangan qiymatdan qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasi ichida ikkilamchi bozordan kredit mablag'lari hisobidan sotib olingan mol-mulklarni garovga qabul qilishda mulkning bahosi oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan qiymatga asosan belgilanadi. Mijoz ichki ikkilamchi bozordan mol-mulk sotib olganda, yuqorida ko'rsatilgan talablar asosida bank hisobidan baholanishi kerak (mijoz tomonidan mulk mustaqil baholanganda bank garov qiymatini belgilangan tartibda tekshirishi lozim). Bunda, bank tomonidan mustaqil baholashda (verifikatsiya qilingan narxdan) ko'rsatilgan qiymatdan ko'p bo'lmagan summani moliyalashtiradi va diskontlar ushbu baholangan qiymatdan qo'llaniladi;

Bosqichma-bosqich kredit mablag'lari ajratilgandan so'ng, kredit hisobiga qurilayotgan obyekt qurilishning har bir bosqichida amalda bajarilgan ishlar asosida qayta baholangan yoki haqiqatda bajarilgan ishlar xajmidan kelib chiqqan holda garovga qabul qilinadi.

Shu bilan birga, dastlab (kredit berilgunga qadar) qurilayotgan obyektning garovga qo'yish uchun mazkur obyekt bank talablariga muvofiq mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi lozim.

Kredit hisobiga qurilayotgan/rekonstruksiya qilinayotgan obyekt to'liq qurib bitkazilib kadastr hujjati rasmiylashtirilgandan so'ng, mijoz bilan kelishilgan holda obyektning yakuniy garov qiymati aniqlanishi, belgilangan tartibda sug'urtalanishi, shuningdek, kredit shartnomasiga o'zgartirishlar kiritilishi va kredit ta'minoti sifatida garovga olinishi lozim.

54. Garov mulki mavjudligini, uning holatini, hujjatlarga (kadastr ko'chirmasi, texpasport va h.k.) asosan butligi, buzilmaganligi, noqonuniy qurilishlar va yer maydonlari mavjud emasligini joyiga chiqqan holda o'rganish hamda mulk egasi bilan uchrashgan holda garovga qo'yish oqibatlarini tushuntirgan holda uning roziligini olish garov qiymatini kelishish guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur guruh ushbu Tartibning 1-ilovasiga asosan hududiy boshqarma boshlig'ining buyrug'iga asosan tuziladi. Guruh tarkibi mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan mas'ul xodimlardan iborat bo'lishi shart. Guruh a'zosi vaqtinchalik ishda bo'lmagan (mehnat ta'tili, mehnatga layoqatsizlik davrida, xizmat safari va boshqalar) davrda, uning vazifasini vaqtincha bajarish yuklatilgan xodim (vazifani yuklash to'g'risidagi ichki buyruqqa asosan) guruh a'zosi sifatida qatnashadi va dalolatnomani imzolaydi.

55. Garov qiymatini kelishish guruhi mustaqil organ hisoblanadi va mol-mulkni yakuniy garovga olish qiymati ushbu guruh tomonidan belgilanadi. Mazkur guruhning ish faoliyatiga va qaror qabul qilish jarayoniga aralashish taqiqlanadi.

56. Garovga taklif etilayotgan mol-mulk joylashgan joyga qarz oluvchi/mulk egasi va guruh a'zolari yoki ulardan biri chiqib, mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni va baholovchi tashkilotning baholash xulosalari bilan solishtirgan holda o'rganadi va baholash dalolatnomasini rasmiylashtiradi. Dalolatnoma guruh a'zolari va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolanib, taraflarning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa, dalolatnoma uch tomonlama, ya'ni qarz oluvchi, garovga qo'yuvchi va bankning garov qiymatini kelishish guruhi a'zolari tomonidan imzolanadi va muhrlar bilan tasdiqlanadi (garov egasi jismoniy shaxs bo'lgan hollarda muhr talab etilmaydi). Bunda baholash dalolatnomasi dastlab guruh tomonidan rasmiylashtirilib, kreditni ajratish bo'yicha vakolatli kollegial organ tomonidan qaror qabul qilingandan so'ng, dalolatnoma qarz oluvchi va mulk egalari tomonidan imzolanishi ham mumkin. Kredit ta'minoti sifatida ikki va undan ortiq yuridik va/yoki jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar taqdim etilgan holatlarda garov narxini kelishuv dalolatnomasi alohida alohida tuzilishi mumkin.

Garov qiymatini kelishish guruhi a'zolari tomonidan garov mulki narxini kelishishda quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

garov mulki uzoq muddat saqlanish xususiyatiga ega bo'lishi;

garov mulkining moddiy va ma'naviy eskirish darajasi;

garov mulki narxining nisbatan barqarorligi;

garov mulkining keng iste'mol doirasiga egaligi, uning tez va erkin sotilishi hamda likvidli bo'lishi;

garov obyekti joyiga chiqib o'rganilganida, uning kadastr hujjatlariga

mutanosibligi;

garovga taklif etilayotgan mulkda uchinchi shaxslarning ulushi mavjud yoki mavjud emasligi, unga nisbatan taqiq qo'yilmaganligi, avval boshqa kreditorlar oldida majburiyatlar bo'yicha garovga qo'yilmaganligi, nizoli emasligi;

garovga qo'yilayotgan mulk ko'char mulk (asbob-uskuna, avtotransport vositalari va boshqalar) bo'lsa, mulk ishlab chiqarilgan yili, texnik hujjatlar bo'yicha barcha qismlar mavjudligi (butlanganligi), ishlab chiqarish quvvati;

garovga qo'yilayotgan mulk avval foydalanilgan bo'lsa, amortizatsiya ko'rsatkichlari va baholanayotgan paytdagi haqiqiy ishchi holati.

57. Garov obyektini ko'zdan kechirish natijalari asosida mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq garov obyektini qiymatini kelishish dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomaga garov obyektini ko'zdan kechirish jarayonida olingan fotosuratlar (fotosuratda guruh a'zolari yoki ulardan biri tushgan bo'lishi lozim) ilova qilinishi zarur.

58. Xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo'yicha kerakli ta'minot qiymatini aniqlashda kamida ushbu kreditning asosiy qarzini qaytarish bo'yicha imtiyozli davr muddati davomidagi xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursi o'sishi bo'yicha Markaziy bankning prognozi inobatga olinishi lozim.

6-bob. Navbatdagi garov obyektlarini kredit ta'minoti sifatida rasmiylashtirish

59. Navbatdagi garov faqat mazkur mulkdan garov sifatida foydalanayotgan qarzdorga (qarzdor ta'sisчисining yaqin qarindoshlari ishtirokida tashkil etilgan korxona yoki qarzdorning ta'sisчisi ishtirokida tashkil etilgan boshqa korxona) ikkinchi va keyingi kreditlarini olayotgan taqdirda garovga olinishi mumkin. Bunda, boshqa tijorat banklarida kredit ta'minoti sifatida garovga olingan mol-mulk navbatdagi garov sifatida qabul qilinmaydi.

Shuningdek, bank tomonidan ajratilgan kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha garovga olingan mol-mulk, boshqa tijorat banklarini kreditlari uchun navbatdagi garov sifatida foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Navbatdagi garov shartnomasi rasmiylashtirilishida mol-mulk qayta baholanadi va ushbu qiymatdan diskont qiymati hisoblanadi. Bunda dastlabki kredit uchun taqdim etilgan mustaqil baholash hisoboti tuzilgan muddati 6 oydan oshmagan bo'lsa mulkni qayta baholash talab etilmaydi.

60. Mol-mulkning garovdan ozod qismini hisoblashda, ushbu mulk garovga taqdim etilgan kredit (oldin ajratilgan va bugungi kunda qarzdorligi mavjud) ta'minot tarkibidagi mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimotidan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi. Buni aniqlashda dastlab ushbu kredit ajratilishida/ma'qullanishida mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimoti aniqlashtirib olinadi, shundan so'ng navbatdagi garov sifatida taqdim etilishi kutilayotgan mulkning ozod qismi hisob kitob qilinadi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

1-misol:

ajratilgan kredit summasi: 100,0 mln.so'm;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 70,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti: 125,0 mln.so'm miqdorida transport vositasi;

garovdan ozod qism aniqlash formulasi:

ta'minot summasi – kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot summasi;

garovdan ozod qism hisob kitobi: $(100,0 \text{ mln.so'm} - 70,0 \text{ mln.so'm}) * 125\% = 37,5 \text{ mln.so'm}$;

ushbu kredit ta'minotidagi transport vositasining garovdan ozod qismi 37,5 mln.so'mni, garovda qoladigan qismi 87,5 mln.so'mni tashkil etadi.

2-misol:

ajratilgan kredit summasi: 1 000,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti: 800,0 mln.so'm miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

450,0 mln.so'm miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 700,0 mln.so'm;

kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot tarkibi: 560,0 mln.so'm miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

315,0 mln.so'm miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%.

Mulkiy garovning ozod qismini aniqlash formulasi = binoning garovga olingan qiymati – kredit qoldig'iga nisbatan binoning qoplash qismi.

Mulkiy garovning ozod qismini hisob kitobi: $800,0 \text{ mln.so'm} - 560,0 \text{ mln.so'm} = 240,0 \text{ mln.so'm}$.

Ushbu kredit ta'minotidagi mulkiy garovning garovdan ozod qismi 240,0 mln.so'mni tashkil etadi.

61. Mulkiy garovning ozod qismi hisoblanayotgan kreditning (oldin ajratilgan va bugungi kunda qarzdorligi mavjud) ta'minot tarkibida "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi mavjud bo'lsa, kompaniya kafilligi evaziga mulkiy garovning ozod qismini hisoblanishiga yo'l qo'yilmaydi.

62. Mol-mulk navbatdagi garov sifatida taqdim etilayotganda uni garovga olish qiymati dastlab mulk qiymatini kelishish bo'yicha tuzilgan dalolatnomada belgilangan summadan oshmasa (amaldagi diskontlarni inobatga olgan holda), ushbu mulkni qayta baholash bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmasligi mumkin. Ushbu shart oxirgi bir yil muddat oralig'ida garovga olingan kredit ta'minotlari bo'yicha amal qiladi.

63. Mol-mulklarni navbatdagi garovga olinishida ularning garov qiymati Tartibning 3-ilovasida keltirilgan diskontlardan kelib chiqib aniqlanadi.

7-bob. Kredit ta'minotini almashtirish, garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish, ta'minot mulkini qisman garovdan ozod qilish bilan bog'liq amaliyotlar

64. Kredit ta'minotini almashtirish, kredit qarzdorligini so'ndirilgan qismiga nisbatan kredit ta'minotini garovdan ozod qilish (qisman garovdan ozod qilish), shuningdek garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish quyidagi 2 xil tartibda:

Monitoring departamentining yozma xati (chek list)ga;

bank Boshqaruvi tomonidan vakolat berilgan tegishli kollegial organi qaroriga asosan ko'rib chiqiladi.

65. Monitoring departamenti tomonidan mustaqil ko'rib chiqilishi uchun kredit ta'minotini almashtirish, kredit qarzdorligini so'ndirilgan qismiga nisbatan kredit ta'minotini qisman garovdan ozod qilish, shuningdek garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirishda kredit va qarzdor quyidagi talablarga javob berishi shart:

ta'minotda qolayotgan mulkiy garovlar qiymati kredit qoldig'ining 125 foiz (aloqador shaxslar uchun 130 foiz)idan ortig'ini tashkil etishi;

kafillikni ta'minot ro'yxatidan chiqarishda kredit qarzdorligi ushbu kafillik hisobidan so'ndirib kelinmayotganligi;

kredit summasining kamida 70 foizi qarz oluvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorda so'ndirilgan bo'lishi;

kreditlar shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar toifasiga kirmagan bo'lishi (Hukumat qarorlariga asosan pandemiya va tabiiy ofatlar sababli shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bundan mustasno);

bank tizimida va boshqa banklarda muddati o'tgan kredit qarzdorligi mavjud bo'lmasligi;

kredit mablag'lari maqsadli ishlatilgan bo'lishi;

mijoz kredit tarixida 30 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorlik shakllangan holatlari 3 martadan ko'p bo'lmasligi;

kollegial organ qarorida belgilangan shartlarning to'liq bajarilganligi;

avvalgi olingan kreditlari bo'yicha 90 kundan oshgan muammoli qarzdorliklar yuzaga kelmaganligi yoki sud jarayonida bo'lmasligi;

kredit asosiy qarzi hamda foiz, penya to'lovlaridan muddat o'tgan qarzdorliklar bo'lmasligi;

garovdan ozod qilinayotgan mulk, ta'minotda qolayotgan boshqa mol-mulklardan yuqori likvidli bo'lmasligi.

66. Muddati o'tgan asosiy qarz hamda foiz qarzdorliklari mavjud bo'lmagan, shuningdek, kredit qoldig'iga nisbatan 125 foiz miqdorida depozit/omonat garovi taklif qilingan hollarda kredit ta'minotini almashtirish mustaqil ravishda Monitoring departamenti tomonidan ko'rib chiqilishiga ruxsat beriladi. "BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB

67. Kredit ta'minotini almashtirish, garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish, kredit ta'minotini qisman garovdan ozod qilish masalasi Monitoring departamenti vakolatida bo'lganda quyidagi amaliyotlar bajariladi.

Mijoz tomonidan bankning hududiy bo'linmasiga kredit ta'minotini almashtirish, garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish, ta'minot mulkini qisman garovdan ozod qilish bo'yicha ariza bilan murojaat qilinadi.

Hududdagi Monitoring bo'limi xodimi ushbu Tartibning 65-66-bandlarida belgilangan talab va shartlar bajarilganligini o'rgangan holda xulosa tayyorlaydi va bankning hududiy boshqarmasi boshlig'i/o'rinbosari imzosi bilan tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda "Smart Office" dasturi orqali Bosh bankka taqdim etadi.

O'z navbatida Monitoring departamenti mas'ul xodimi taqdim qilingan hujjatlar asosida ushbu Tartibning 65-66-bandlarida belgilangan talab va shartlar bajarilganligini o'rganadi va yozma xat (chek list) tayyorlaydi. Mazkur yozma xat (chek list) Monitoring departament direktori/o'rinbosari tomonidan imzolangandan so'ng, Kredit amaliyotlari departamentiga taqdim etiladi.

Shundan so'ng, Kredit amaliyotlari departamenti tomonidan belgilangan tartibda garov mulkini taqiqdand yechish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

68. Tartibning 65-66-bandlarida ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan hollarda kredit ta'minotini almashtirish, garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish, ta'minot mulkini qisman garovdan ozod qilish masalasi bank Boshqaruvi tomonidan vakolat berilgan tegishli kollegial organi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bunda mijoz tomonidan bankning hududiy bo'linmasiga ariza bilan murojaat qilinadi.

Arizani ko'rib chiqish Bosh bank kredit qo'mitasi vakolatida bo'lsa, ariza va taqdim etilgan hujjatlar bankning hududdagi Monitoring bo'limi xodimi tomonidan o'rganib chiqilib, vakolat doirasida qaror qabul qilish uchun hududiy boshqarma Kredit komissiyasiga o'z xulosasini taqdim etadi. Kredit komissiyasining ijobiy qarori qabul qilingandan keyin, bankning Monitoring bo'limi xodimi "Smart Office" dasturi orqali yozma xat bilan barcha hujjatlarni Bosh bankka yuboradi.

O'z navbatida Bosh bank Monitoring departamenti mas'ul xodimi mazkur hujjatlarni o'rganib chiqib, yakuniy qaror qabul qilish uchun hujjatlarni Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

Muammoli kredit toifasiga (muddati to'liq o'tgan, muddatidan oldin undirish choralari ko'rilayotgan, sud yoki ijro jarayonida bo'lgan, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoiy ish ochilgan) mansub bo'lgan kredit ta'minotlarini qisman garovdan ozod qilish bilan bog'liq amaliyotlar bankning Muammoli aktivlar bilan ishlash va undiruv departamentining ushbu masala yuzasidan yozma xati olingan holda amalga oshiriladi.

Kredit qo'mitasining ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng, Monitoring departamenti mas'ul xodimi "Smart Office" dasturi orqali Kredit qo'mitasi qarorini

ilova qilgan holda Kredit amaliyotlari departamentiga yozma xat yuboradi.

Mazkur qarorga asosan Kredit amaliyotlari departamenti tomonidan belgilangan tartibda garov mulkini taqiqdan yechish ishlari amalga oshiriladi.

Boshqaruv tomonidan hududiy boshqarma Kredit komissiyasiga vakolat berilgan hollarda, mijoz arizasi va taqdim etilgan hujjatlar bankning hududdagi Monitoring bo'limi xodimi tomonidan o'rganib chiqilib, qaror qabul qilish uchun hududiy boshqarma Kredit komissiyasiga o'z xulosasini taqdim etadi. Kredit komissiyasining ijobiy qarori qabul qilingandan keyin, bankning Monitoring bo'limi xodimi "Smart Office" dasturi orqali yozma xat bilan Kredit komissiya qarori va tegishli hujjatlarni Bosh bankka yuboradi.

Ushbu hujjatlarni Bosh bank Monitoring departamenti mas'ul xodimi o'rganib chiqadi va "Smart Office" dasturi orqali Kredit komissiya qarorini ilova qilgan holda Kredit amaliyotlari departamentiga yozma xat yuboradi.

Mazkur Kredit komissiya qaroriga asosan Kredit amaliyotlari departamenti tomonidan belgilangan tartibda garov mulkini taqiqdan yechish ishlari amalga oshiriladi.

Kredit ta'minotini almashtirish, garov mulkiga bo'lgan egalik huquqini almashtirish, kredit ta'minotini qisman garovdan ozod qilish bo'yicha taqdim qilingan mijoz arizasi bankning tegishli vakolatli organi tomonidan 1 (bir) oy muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Mijoz arizasi rad qilingan taqdirda, bank tomonidan ushbu haqda mijozga asoslantirilgan holda javob berilishi kerak.

8-bob. Kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilganda ta'minot mulkini garovdan ozod qilish, "Garov reyestri" bazasidan yozuvlarni o'chirish va taqiqni bekor qilish bilan bog'liq amaliyotlar

69. Kredit ta'minoti uchun qabul qilingan mulklar ajratilgan kredit qarzdorliklari bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng, uch ish kunidan kechiktirmagan holda taqiqdan yechiladi.

70. Kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilganda ta'minot mulklarini garovdan ozod qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilib, kredit anketasi iABS dasturida "Закрѳтые ссуды" holatiga o'tgandan so'ng, bankning hududiy bo'linmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo'limi mas'ul xodimi "Smart Office" dasturining "Garovlar bilan ishlash" modulida notarial idoraga taqdim etish uchun xat namunasini kiritadi va elektron raqamli imzo (QR-kodli) bilan tasdiqlash uchun Bosh bankning Kredit amaliyotlari departamentiga yuboradi.

Ushbu xat to'g'ri rasmiylashtirilganligi departamentning mas'ul xodimi tomonidan tekshirilgandan so'ng, departament direktori (ishda bo'lmagan vaqtlarda vazifasi yuklatilgan mas'ul xodim) tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu xatga asosan garov mulkiga 2019 yil 1-yanvargacha qo'yilgan taqiqlar hududiy notarial idoralari tomonidan, garov mulkiga 2019 yil 1-yanvardan keyin qo'yilgan taqiqlar esa Kredit amaliyotlari departamenti mas'ul xodimi tomonidan maxsus dastur orqali bekor qilinadi.

Garovga olingan ko'chmas mulklarga kadastr idoralari tomonidan qo'yilgan taqiqlarni bekor qilish, shuningdek, taqiq saqlangan holda ko'chmas mulk kadastr hujjatlarini yangilash bo'yicha xatlar bankning hududiy bo'linmasi boshlig'i tomonidan taqdim etiladi.

Notarial tartibda rasmiylashtirilmagan garov mulklarini "Garov reyestri" bazasidagi yozuvlarni o'chirish bankning hududiy bo'linmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo'limi mas'ul xodimi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Kredit qarzдорligi to'liq so'ndirilganda avtokredit va ipoteka kreditlari hisobiga birlamchi bozordan sotib olingan avtomashina va uy-joylarga "Garov reyestri" bazasida qo'yilgan taqiqlarni bekor qilish Bosh bankda Kredit amaliyotlari departamentining mas'ul xodimi tomonidan bajariladi.

9-bob. Sud qarorlari, auksion orqali sotilgan garov mulklari va bank balansiga qabul qilinayotgan garov mulklarini garovdan ozod qilish bilan bog'liq amaliyotlar

71. Sud qarorlari, auksion orqali sotilgan garov mulklari va bank balansiga qabul qilinayotgan garov mulklarini taqiqdan yechish tegishli hujjatlar (sud qarori, sud ajrimi, mol-mulkni balansga olish to'g'risidagi kollegial organ qaroridan ko'chirma, auksion orqali sotib olingan bo'lsa g'oliblik bayonnomasi va b.) ilova qilingan holda bankning hududiy bo'linmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi tomonidan "Smart Office" dasturining "Garovlar bilan ishlash" modulida notarial idoraga taqdim etish uchun xat namunasi kiritiladi va elektron imzo (QR-kodli) bilan tasdiqlash uchun Kredit amaliyotlari departamentiga yuboriladi.

Ushbu xat to'g'ri rasmiylashtirilganligi departamentning mas'ul xodimi tomonidan tekshirilgandan so'ng, departament direktori (ishda bo'lmagan vaqtlarda vazifasi yuklatilgan mas'ul xodim) tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu xatga asosan garov mulkiga taqiq 2019 yil 1-yanvargacha qo'yilgan bo'lsa hududiy notarial idoralari tomonidan, garov mulkiga taqiq 2019 yil 1-yanvardan keyin qo'yilgan bo'lsa Kredit amaliyotlari departamenti mas'ul xodimi tomonidan maxsus dastur orqali bekor qilinadi.

Sud qarorlariga asosan garov mulkini taqiqdan yechish ishlari Yuridik departamentning ushbu holat bo'yicha yozma xati olingan holda bajariladi.

Mazkur Tartibda nazarda tutilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining garov bilan bog'liq amaldagi qonuni va qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

10-bob. Pul mablag'lari garovi shartnomasini rasmiylashtirish

72. Pul mablag'larini garovga qo'yish quyidagi ikki usulda amalga oshiriladi:

mablag'lar bankning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi, shundan so'ng pul mablag'larini garovga qo'yish shartnomasi rasmiylashtiriladi. Pul mablag'lari kredit to'liq qaytarilgunga qadar maxsus hisobvaraqa saqlanishi kerak;

kredit ta'minoti sifatida kredit muddatidan kam bo'lmagan muddatga mijozning "Biznesni rivojlantirish banki" ATB hududiy bo'linmalarida ochilgan depozit/omonat mablag'lari qabul qilinishi mumkin.

Bunda garov shartnomasida kredit majburiyatlari bajarilmagan taqdirda bankning garovga qo'yilgan pul mablag'larini depozit hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda (garovga oluvchining huquqlaridan foydalangan holda) undirib olish huquqi nazarda tutilishi kerak.

73. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB maxsus hisobraqamlarida saqlanadigan omonat/depozit mablag'lari ham kreditning ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday hollarda, omonat/depozit shartnoma muddati kredit muddatidan kam bo'lmashligi, kredit muddatidan kam bo'lgan hollarda, uning muddati kredit muddatiga mos ravishda uzaytirilishi hamda ushbu mablag'lar belgilangan tartibda garovga olingan (garov shartnomasi imzolangan) bo'lishi kerak. Bunda omonat/depozitdagi pul mablag'lari garovi shartnomasi imzolanishi, kredit majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, ushbu mablag'lardan akseptsiz undirish (garovga oluvchi huquqlaridan foydalangan holda) kabilar garov shartnomasida ko'rsatilishi kerak.

74. Qarz oluvchi va/yoki uchinchi shaxslar kredit bo'yicha garovda turgan o'zining va/yoki uchinchi shaxslarga tegishli depozitdagi (omonatidagi) mablag'larini kredit shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qat'i nazar, mazkur kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega.

75. Pul mablag'lari garovida, ushbu pul mablag'lari alohida "Boshqa majburiyatlar" balans hisobvarag'iga kirim qilinadi va mijozning bank oldidagi majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng yoki majburiyat bekor qilinganda chiqim qilinishi mumkin.

11-bob. Boshqa turdagi garov shartnomalarini rasmiylashtirish va ularning hisobini yuritish

76. Kredit ajratish to'g'risida qaror qabul qilib, belgilangan tartibda tomonlar o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan keyin, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank va qarz oluvchi/garovga qo'yuvchi o'rtasida garov/ipoteka shartnomalari va qonun osti hujjati asosida garov (ipoteka) huquqi rasmiylashtiriladi.

77. Ta'minotga oid barcha shartnomalar amaldagi qonunchilik va Bosh bank tomonidan ishlab chiqilgan kreditlash bilan bog'liq namunaviy shartnomalardan foydalangan holda tuzilishi lozim.

78. Notarial tasdiqlanmaydigan bitimlar (garov/ipoteka shartnomasi) bank xodimi (vakili) ishtirokida garovga qo'yuvchining imzo namunalariga asosan (fuqaroning pasporti yoki ID kartasi va/yoki ishonchnoma) imzolarning haqiqiyligi va to'g'riligini tekshirgan holda imzolanishi kerak.

79. Bosh kelishuv shartnomalari asosida ajratilgan kreditlarda ta'minot ajratilgan kredit uchun zarur bo'lgan summa bo'yicha kreditning 125 foiz miqdorida bir marta hisobga olinadi.

80. Qoplangan kafolat uchun taqdim etilgan pul mablag'lari kafolat muddati tugagunga qadar maxsus hisobraqamda yoki omonat hisobraqamida saqlanadi. Bunda benefitsiar tomonidan kafolat majburiyati qisman kamaytirilganligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etilsa, prinsipal murojaatidan kelib chiqib, ta'minotda turgan pul mablag'larining bir qismi egasiga qaytarilishi mumkin (ta'minotda qoladigan pul mablag'lari kafolat summasi va kafolat uchun hisoblangan foiz qarzdorliklarini qoplashga yetarli bo'lishi lozim).

81. Ko'chmas mulklar garovga taqdim etilishida quyidagi amaliyotlar bajarilishi lozim:

kredit ta'minotiga ko'chmas mulk garovga olingan hollarda ipoteka shartnomasini notarial rasmiylashtirish (bunda birlamchi bozordan sotib olinadigan ko'chmas mulk olish vaqtidagi ipoteka shartnoma mustasno). Ipoteka shartnomasini (shu jumladan bank tomonidan ajratiladigan ipoteka krediti ta'minoti sifatida birlamchi va ikkilamchi bozordan sotib olinayotgan ko'chmas mulklarni kelajakda ta'minot sifatida tuziladigan garov (ipoteka) shartnomalarini ham) kadastr organida davlat ro'yxatidan o'tkazish;

kadastr organidan ipoteka shartnomasining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tekshirish maqsadida Davlat kadastr reyestridan ko'chmas mulk bo'yicha ko'chirma olish;

Bank tomonidan zarur hollarda ko'chmas mulk obyektlarining topografik chizmasi ham talab qilib olinishi mumkin.

Ushbu amaliyotlar bank kredit mahsulotlari bo'yicha ishlab chiqilgan biznes jarayonlarda belgilangan bank bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

82. Notarial tartibda tasdiqlangan bitimlar (ipoteka/garov) ga qo'shimcha va tuzatishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrda 726-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan mol-mulkni garovga (ipotekaga) qo'yish to'g'risida"gi shartlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentiga asosan amalga oshiriladi.

83. Kredit ta'minoti sifatida rasmiylashtirilgan garov, kafillik, sug'urta polisi bilan bog'liq hujjatlar hisobi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida qabul qilingan ta'minot summasida kredit va foizlar to'liq so'ndirilgunga qadar yuritiladi (ta'minot qisman ozod etilishi va/yoki almashtirilishi bundan mustasno). Bunda ular kredit ajratilgan kundan kechikmasdan tegishli hisobvaraqlarga Kreditlarni boshqarish bo'limi xodimlari tomonidan kirim qilinishi kerak.

84. Notarial tasdiqlanishi shart bo'lmagan bitimlar (garov/ipoteka shartnomalari) bank xodimi (vakili) va taraflar ishtirokida imzolanishi va imzolar asli imzo namunasi (fuqarolik pasporti va/yoki ishonchnomadagi)ga o'xshagan bo'lishini tekshirish lozim.

85. Bankning hududiy bo'linmasidagi Kreditlarni boshqarish bo'limi mas'ul xodimi garov shartnomasining tegishli davlat organlaridan ro'yxatdan o'tkazilishi (tasdiqlanishi)ni tekshirishga mas'uldir. Shartnomalar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi (tasdiqlanishi) shart qilib belgilangan hollarda, mijoz tomonidan shartnomalar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan holatda bankka taqdim etilishi shart.

86. Transport vositalari, maxsus texniklar va ko'chmas mulklarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar tegishli davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi (tasdiqlanishi) shart.

87. Garov hujjatlari notarial idoralarda rasmiylashtirilgandan so'ng, garov mulkiga kredit bo'yicha majburiyat to'liq bajarilgunga qadar taqiq qo'yiladi va bu taqiq tegishli davlat organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

88. Bankning hududiy bo'linma kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi garov obekti to'g'risidagi ma'lumotlarni garov reyestriga to'liq kiritishi shart. Mazkur ma'lumotlar to'laqonli garov reyestriga kiritilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida www.garov.uz saytidan tekshirib ko'rilishi lozim.

89. Garovga taqdim etilgan mulkni taqiqdan chiqarish, kredit majburiyati to'liq bajarilgandan so'ng, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi (bunda ta'minot mulkini garovdan qisman ozod qilinishi va/yoki almashtirilishi mustasno).

90. Garov obyektining turidan qat'iy nazar kredit ta'minotlarining hisobi balansdan tashqari hisobvaraqlarda yuritiladi.

91. Ta'minotlar to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng mijoz bilan ishlovchi menejerlar tomonidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan kredit hamda uning ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'majildi bilan birgalikda kredit ajratish uchun Kreditlarni boshqarish bo'limiga topshiriladi. Kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi tomonidan kredit va uning ta'minotiga tegishli hujjatlar (garov, kafillik shartnomalari, kredit qaytmaslik sug'urta polisi, kredit shartnomalari, bank kafolati shartnomalari) asl nusxalari belgilangan tartibda kredit yig'majildiga tikiladi hamda kredit ajratiladi. Kredit ajratilgandan so'ng qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan kredit yig'majildi hududlardagi Monitoring bo'limlariga topshiriladi va kredit hujjatlari majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar bankning hududiy boshqarmalaridagi Monitoring bo'limida saqlanadi. Kredit va uning ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarning asl nusxalari temir, yonmaydigan shkaf(seyf)larda bankning hududiy bo'linma rahbarlari, Monitoring bo'limi boshlig'i hamda xodimlari javobgarligi ostida saqlanadi.

Mazkur bosqichda, ya'ni kreditlash xizmati (kredit, lizing, faktoring, bank kafolati) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgandan keyin ta'minot bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'majildi bilan birgalikda bank arxiviga topshiriladi.

92. Ta'minot rasmiylashtirishga doir barcha harakatlar (shartnoma tuzish, garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash, notarial tasdiqlash, ipoteka va boshqa

shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa ishlar) bank tomonidan kredit mablag'lari ajratilgunga qadar amalga oshirilishi hamda garov mulki sug'urta polisi muddati kredit muddatiga mutanosib ravishda bo'lishi kerak. Kredit ta'minoti mulki garovdan to'liq ozod etilishi qarz oluvchi tomonidan bank oldidagi tegishli kredit qarzдорligi to'liq so'ndirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

93. Bank kredit shartnomasiga asosan kredit bo'yicha qarzдорlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha:

garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;

garovda bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan o'chirish choralarini ko'rishi lozim.

Ushbu amaliyotlar bank kredit mahsulotlari bo'yicha ishlab chiqilgan biznes jarayonlarda belgilangan bank bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

94. Bank tomonidan garov egasini o'zgarishi uchun rozilik faqatgina quyidagi asosli holatlar bo'lganda beriladi:

garov obyektiga nisbatan mulk huquqi merosxo'rlarga o'tganda;

yuridik shaxs majburiy ravishda qayta tashkil etilgan yoki qo'shib olinishi natijasida huquqiy vorisga o'tganda;

amaldagi qonunchilikka asosan tartibda ko'zda tutilmagan boshqa holatlarda.

12-bob. Uchinchi shaxslar kafilligi ta'minot sifatida olinishi

95. Kredit ta'minoti sifatida to'lovga layoqatli va moliyaviy ishonchliligi o'rganilgan, doimiy pul mablag'lari oqimiga ega bo'lgan uchinchi shaxslarning solidar tartibdagi kafilliklari qabul qilinadi. Kafillik ta'minot sifatida qabul qilinishida va kafillik shartnomasi tuzilishida, bankning hududiy bo'linmasi bevosita kafilning o'zi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi, ya'ni "o'zingni o'zing himoya qil" tamoyiliga rioya qilishi kerak.

Kafil korxonaning moliyaviy holatini o'rganishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

korxona sof aktivlarining mavjudligi, shuningdek sof aktivlarni shakllantirish manbai;

kredit majburiyatlarining mavjudligi va kafilning kredit tarixi;

uchinchi shaxslar foydasiga berilgan kafilliklar miqdori, shuningdek kafillik berilgan qarzдорlarning kredit majburiyatlarini bajarish qobiliyati;

kafilning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kafilga nisbatan sud jarayoni va/yoki ijro protsessining mavjudligi.

96. Yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritayotgan korxona kafilligini ta'minot sifatida qabul qilishda, kafillik miqdori kafil korxonaning sof aktivlaridan oshmasligi kerak (qo'shimcha ta'minot sifatida olinadigan holatlar bundan mustasno). Kafilning

sof aktivlari quyidagicha hisoblanadi:

$SA = JA - JM - JMQ - GA$, bu yerda:

SA - sof aktivlar;

JA - jami aktivlar;

JM - jami majburiyatlar;

JMQ - boshqa kreditlar uchun taqdim etilgan kafilliklar bo'yicha jami majburiyatlarning qoldig'i;

GA – garov ta'minoti sifatida taqdim etilgan aktivlar.

97. Kafillik shartnomasi bank, qarz oluvchi va kafil tomonlar o'rtasida yozma shaklda tuziladi. Kafillik shartnomalari amaldagi qonunchilik va bank Bosh ofisi tomonidan ishlab chiqilgan kreditlash bilan bog'liq namunaviy shartnomalardan foydalangan holda tuzilishi lozim.

98. Kafillik asosida ajratilgan kreditlar monitoringi natijasida kafilning to'lov qobiliyati yomonlashganligi, ya'ni so'nggi moliyaviy hisobotlari bo'yicha balans nolikvidligi yoki zarar bilan ishlab kelayotganligi aniqlangan taqdirda, kreditga boshqa ta'minot turini talab qilish yoki kreditni muddatidan oldin undirish choralari ko'riladi.

99. Bankning hududiy bo'linmasi qarz oluvchining yoki yangi kafilning arizasiga binoan mustaqil ravishda yangi kafildan kredit uchun kafillik shartnomasini rasmiylashtirishi mumkin. Bunday hollarda ushbu kafillik uchun kollegial organ qarorini olish hamda Bosh bank ruxsat xati talab qilinmaydi.

13-bob. Kredit qaytmaslik xatarini sug'urta qilinishi

100. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasiga muvofiq, sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-sonli qarorning 6-ilovasida sug'urta faoliyati klassifikatori berilgan bo'lib, ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi (14-klass) qabul qilinadi. Bunda sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi majburiyat hisoblanadi.

Bank tizimida kredit ta'minoti sifatida sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisini olishda, avvalambor kompaniyani moliyaviy jihatdan barqarorligi hamda o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajara olish qobiliyati o'rganilishi lozim.

Qarz oluvchi tomonidan so'ralayotgan kredit muddatiga mos ravishda sug'urta polisi olinib, sug'urta to'lovi to'liq to'langandan so'ng kreditlash xizmati amalga oshiriladi.

Kredit hisobiga sotib olinadigan asosiy vositalar kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etilishi rejalashtirilayotgan bo'lsa, asosiy vositalar yetib kelgunga qadar vaqtinchalik sug'urta polisi (14-klass) olinib, asosiy vositalar olib kelinib, belgilangan tartibda garovga olingunga qadar bo'lgan muddatga sug'urta polisi olinishi va ushbu muddatga sug'urta to'lovi to'lanishi mumkin.

Shuningdek, kredit hisobiga sotib olinayotgan yoki qurilayotgan mol-mulk garovga olinishi ko'zda tutilgan hollarda, kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi muddati mol-mulk garovga olingungacha bo'lgan muddatga rasmiylashtirilishi mumkin.

101. Bank, sug'urta kompaniyasi va qarzdor o'rtasida aniq majburiyatlar ko'rsatilgan holda so'ralayotgan kredit muddatiga mutanosib ravishda sug'urta shartnomalari tuziladi. Sug'urta shartnomasi Bosh bank tomonidan tasdiqlangan kreditlash bilan bog'liq namunaviy sug'urta shartnomalari loyihasidan foydalangan holda tuzilishi shart.

102. Sug'urta to'lovi taqdim etilayotgan sug'urta polisining to'liq amal qilish davriga to'lanishi lozim.

103. Sug'urta polisi muddati tugaganda sug'urta muddatini uzaytirish sug'urta mukofotini mijozdan keyinchalik undirish sharti bilan bank tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

14-bob. Yakuniy qoidalar

104. Ushbu Tartibda belgilangan qoidalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelmay qolgan holatlarda amaldagi qonun hujjatlariga rioya etiladi.

105. Kredit ta'minoti bilan ishlash tartibi talablarining buzilishida aybdor bo'lgan bank xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.


106. Mazkur Tartib bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uni bekor qilish bank Boshqaruvi qarori bilan amalga oshiriladi.

107. Tartib kuchga kirgan kundan boshlab bank Boshqaruvining 2024-yil 22-yanvardagi 11-sonli qarori bilan tasdiqlangan (29-son bilan ro'yxatga olingan) "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimida kredit ta'minoti bilan ishlash Tartibi va unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Kredit bosh direktori

Kredit amaliyotlari departamenti
direktori o'rinbosari




B.Mullajanov

Z.Mamayev

Biznesni rivojlantirish banki" ATB
tizimida kredit ta'minoti
bilan ishlash Tartibiga
1-ilova

Garov qiymatini kelishish guruhi tarkibi

№	Mijoz segmenti	Bankning hududiy boshqarma va bo'linmalarida
1.	Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar garov mulki bo'yicha	Hududiy bo'linma uchun 1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. Biznes yunalishidagi hududiy bo'linma boshlig'i o'rinbosari 2-toifali BXM uchun 1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. 2-toifali BXM boshlig'i
2.	Yuridik shaxslarga berilayotgan kreditlarda mustaqil baholash narxi miqdori 1,0 mlrd. so'mgacha bo'lgan mulklar bo'yicha	Hududiy bo'linma uchun 1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. Biznes yunalishidagi hududiy bo'linma boshlig'i o'rinbosari 2-toifali BXM uchun 1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. 2-toifali BXM boshlig'i
3.	Yuridik shaxslarga berilayotgan kreditlarda mustaqil baholash narxi miqdori 1,0 mlrd. so'mdan – 3,0 mlrd. so'mgacha bo'lgan mulklar bo'yicha	Hududiy bo'linma uchun 1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. Biznes yunalishidagi hududiy bo'linma boshlig'i o'rinbosari 3. Hududiy bo'linma boshlig'i
4.	Yuridik shaxslarga berilayotgan kreditlarda mustaqil baholash narxi miqdori 3,0 mlrd. so'mdan – 10,0 mlrd. so'mgacha bo'lgan mulklar bo'yicha	Hududiy bo'linma uchun 1. Hududiy bo'linma boshlig'i va Kredit komissiya a'zolari
5.	Yuridik shaxslarga berilayotgan kreditlarda mustaqil baholash narxi miqdori 10,0 mlrd. so'mdan yuqori bo'lgan mulklar bo'yicha	Hududiy boshqarma uchun 1. Hududiy boshqarma Kredit komissiya a'zolari



“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash Tartibiga
2-ilova

Garovga qo‘yilayotgan mol-mulk qiymatini kelishish dalolatnomasi

1	Dalolatnoma raqami	01.04.2025
2	Tuzilgan joyi	Toshkent sh.
3	MBXO /Amaliyot boshqarmasi	Amaliyot boshqarmasi
4	Qarz oluvchining nomi	“Namuna” MChJ
5	Kreditning nominaldagi summasi	100 000 000
6	Kredit valyutasi	So‘m
7	Kredit summasi ekvivalentda	100 000 000
8	Talab qilinayotgan ta’minot summasi	125 000 000

KO‘CHMAS MULK BO‘YICHA MA‘LUMOT

No	Ko‘chmas mulk nomi	Mulkdor	Manzil	Kadastr raqami	Umumiy maydoni (kv.m)	Qurilish osti maydoni (kv.m)	Yer maydoni (kv.m) (agar bo‘lsa)
1							

KO‘CHAR MULK BO‘YICHA MA‘LUMOT

No	Mulk nomi va uning tavsifi	Mulkdor	Manzil	Mulk huquqini tasdiqlabchi hujjat	Ishlab chiqarilgan sana (agar transport yoki uskuna bo‘lsa)	Mulkdor tomonidan xarid qilingan narxi (agar bo‘lsa)
1						

MUSTAQIL BAHOLASH, KONSALTING HULOSASIGA MUVOFIQ MULK QIYMATI VA GAROV SUMMASI

SO‘M

No	Ta’minot turi (asosiy/qo‘shimcha)	Mustaqil baholash bo‘yicha qiymati (so‘m)	Konsalting kompaniya belgilagan qiymat (so‘m)	Garov summasi (so‘m)	Navbatdagi garovdan ozod qismi (agar bo‘lsa)	Mustaqil qiymatdan qo‘llangan diskont (agar bo‘lsa)	Kreditni qoplash, %da
1							
2							
3							
	Jami						
	IZOH						

AQSh dollari/ Yevro

No	Ta’minot turi (asosiy/qo‘shimcha)	Mustaqil baholash bo‘yicha quymati (AQSh dollari/ Yevro)	Konsalting kompaniya belgilagan qiymat (AQSh dollari/ Yevro)	Garov summasi (AQSh dollari/ Yevro)	Navbatdagi garovdan ozod qismi (agar bo‘lsa)	Mustaqil qiymatdan qo‘llangan diskont (agar bo‘lsa)	Kreditni qoplash, %da
1							
2							
3							
	Jami						
	IZOH						

Garovga oluvchi: Amaliyot Boshqarmasi	Qarzdor: “Namuna” MChJ
Boshqaruvchi	Direktor:
Boshqaruvchining o‘rinbosari	
Kredit bo‘limi boshlig‘i	
	Garovga qo‘yuvchi: “DDDDDD” MChJ
	Direktor:

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash tartibiga
3-ilova

Ta’minot turi	Kredit muddati			
	18 oygacha	18 oydan 36 oygacha	36 oydan 60 oygacha	60 oydan ortiq
Yer uchastkalari (bogʻ, uzumzor va boshqalar) foydalanish huquqi (ijara)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	50% gacha	50% gacha	50% gacha	50% gacha
Koʻchmas mulk				
Turar-joy/ xonadon (pishiq gʻisht)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	90% gacha	90% gacha	90% gacha	90% gacha
Turar-joy/xonadon (hom gʻisht)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	80% gacha	75% gacha	70% gacha	65% gacha
Ipoteka krediti hisobiga sotib olingan uy-joy/kvartira	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	100% gacha	100% gacha	100% gacha	100% gacha
Noturar joy binolari va inshootlari (pishiq gʻisht)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	90% gacha	90% gacha	90% gacha	90% gacha
Noturar joy binolari va inshootlari (hom gʻisht)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	80% gacha	75% gacha	70% gacha	65% gacha
Kredit mablagʻlari hisobiga sotib olingan bino va inshootlar	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	90% gacha	90% gacha	90% gacha	90% gacha
Issiqxonalar (rasmiylashtirilgan kadastr bilan)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	40% gacha	30% gacha	20% gacha	20% gacha
AYoQSh, AGTS (AGNKS) komplekslari (bunda uskuna bilan garov qismi ajratish talab etilmaydi)	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	90% gacha	85% gacha	85% gacha	85% gacha
Uskunalar				
Ishlab chiqarish muddati 2 yilgacha boʻlgan uskunalar	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	50% gacha	40% gacha	30% gacha	30% gacha
Ishlab chiqarilgan muddati 2 yildan ortiq boʻlgan uskunalar	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	40% gacha	30% gacha	20% gacha	20% gacha
Kredit hisobiga sotib olingan uskunalar	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	60% gacha	60% gacha	60% gacha	60% gacha
Yengil avtotransport (M1) va mikroavtobus vositalari				
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan koʻp boʻlmagan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	80% gacha	70% gacha	65% gacha	60% gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash toʻgʻrisidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	70% gacha	65% gacha	60% gacha	55% gacha
Kredit hisobiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	80% gacha	70% gacha	60% gacha	60% gacha

Yuk tashuvchi avtotransport vositalari va tirkamalar (N1, N2, N3, O)				
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan ko'p bo'lmagan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash to'g'risidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	75% gacha	70% gacha	65% gacha	60% gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash to'g'risidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	70% gacha	65% gacha	60% gacha	55% gacha
Kredit hisobiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	80% gacha	75% gacha	70% gacha	65% gacha
Sedelniy tyagachlar				
Ishlab chiqarilganiga 7 yildan ko'p bo'lmagan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash to'g'risidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	75% gacha	70% gacha	65% gacha	60% gacha
Odam tashuvchi avtotransport vositalari (M2,M3)				
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan ko'p bo'lmagan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash to'g'risidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	80% gacha	75% gacha	70% gacha	65% gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan avtotransport vositalari	Konsalting xulosasi/baholash to'g'risidagi hisobot qiymatidan kelib chiqib			
	75% gacha	70% gacha	65% gacha	60% gacha
Kredit hisobiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	85% gacha	80% gacha	75% gacha	70% gacha
Qishloq ho'jaligi va maxsus texnikalar				
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan ko'p bo'lmagan maxsus texnika	Konsalting xulosasi qiymatidan kelib chiqib			
	70% gacha	60% gacha	50% gacha	40% gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan maxsus texnika	Konsalting xulosasi qiymatidan kelib chiqib			
	50% gacha	40% gacha	30% gacha	20% gacha
Kredit hisobiga sotib olingan maxsus texnika	Oldi-sotdi shartnomasi qiymatidan			
	75% gacha	65% gacha	55% gacha	45% gacha
Tovar-moddiy zahiralari				
Aylanmadagi tovarlar	Balans qiymatidan kelib chiqib			
	50% gacha	Qo'llanilmaydi	Qo'llanilmaydi	Qo'llanilmaydi
Davlat obligatsiyalari				
Davlat obligatsiyalari	Birja bozorida xaridor taklif etgan narxdan			
	100% gacha	100% gacha	100% gacha	100% gacha
Aksiyalar (kotirovka qilinadigan)				
Aksiyalar (kotirovka qilinadigan)	Birja bozorida xaridor taklif etgan narxdan			
	80% gacha	70% gacha	70% gacha	60% gacha
Mikromoliya tashkilotlarining kredit portfeli				
Mikromoliya tashkilotlarining kredit portfeli (standart aktiv ifatida tasniflangan va boshqa bankda garovda bo'lmagan qismi)	Balans qiymatidan kelib chiqib			
	60% gacha	50% gacha	Qo'llanilmaydi	Qo'llanilmaydi

* Bank boshqaruvi tomonidan muammoli aktivlarni sog'lomlashtirish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish bo'yicha qabul qilingan qarorlariga asosan bank balansiga olingan mulklar salohiyatli mijozlarga kredit/bo'lib-bo'lib to'lash asosida sotilishi evaziga ushbu mulklar garovga olinishida garov miqdorining yetarililigi bo'yicha diskont miqdori oldi-sotdi shartnomaga asosan yuqorida ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

ICHKI MEYORIY

kredit portfeli (standart aktiv ifatida tasniflangan va boshqa bankda garovda bo'lmagan qismi)	60% gacha	50% gacha	Qo'llanilmaydi	Qo'llanilmaydi
--	-----------	-----------	----------------	----------------

* Bank boshqaruvi tomonidan muammoli aktivlarni sog'lomlashtirish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish bo'yicha qabul qilingan qarorlariga asosan bank balansiga olingan mulklar salohiyatli mijozlarga kredit/bo'lib-bo'lib to'lash asosida sotilishi evaziga ushbu mulklar garovga olinishida garov miqdorining yetarliligini belgilash bo'yicha diskont miqdori oldi-sotdi shartnomaga asosan yuqorida ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

kelishuvchilar: U.Alimov, A.Xasanov, O'.Meyliyev, A.Tillayev, A.Ravshanov, J.Kurbanov, K.Karimov, F.Atayev, B.Mullajanov, N.Mavlanov, O.Almardanov, F.Eshnazarov, A.Tolibov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=nT43rD87&id=7a645f95-b0d2-4c5c-a824-f5b06ac9450c>